



**XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEK ADABIYOT VA UNING
OTASHQALB NAMOYANDALARI**

Murodova Sadoqat Qo‘ziboyevna

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası
o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada chor Rossiyasi davrida adabiyot sohasidagi yutuqlar va uning namoyandalari hamda ijodkorlar tomonidan yaratilga asarlari, ularning sherlari, g‘azallari, adiblarning adabiyot sohasiga qo‘shgan hissalarini haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, bu ma‘lumotlar ilmiy va tarixiy adabiyotlar asosida o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *Leninobod, lirika, satira, g‘azal, risola, roman, mushoira, muxammas, avtograf, yumor, hajv, misra, nazm, nasr, radifli.*

XIX- asr ikkinchi yarmi XX-asr boshlarida yashab ijod qilgan yirik shoirlar va yozuvchilar o‘z ijodlarida xalq dardini, davrning dolzarb muommolarini aks ettirishga harakat qilganlar. Ular orasida Muqimiy, Furqat, Zavqiy, shoira Anbar otin Abdulla Qodiriy va boshqalarning ijodini alohida ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Ubaydullo Solih o‘g‘li Zavqiy, shoir ijodining dastlabki davriga oid sherlari jumlasiga uning “Chekib xasrat demish xon shahri ho‘qandimdan ayrildim” misrasi bilan boshlanadigan 7 band 35 misralik bir muxammasi, “Qarz”, “Pashshalar” radifli o‘zbekcha g‘azallarini kiritish mumkin. Zavqiy siyosiy lirikalar, o‘tkir satiralar bilan bir qatorda davom etib kelayotgan adabiy an‘anlarga muvofiq ishq muhabbat go‘zallik mavzularda ham sherlar yozgan. Shoir o‘zining ishqiy sherlarini ijod etishda Muqimiy, Furqatlar kabi Alisher Navoiy ijodiga ergashadi, U ilohiy ishq muhabbatni emas chin muhabbatni kuylaydi. Uning “Oromijon”, “Kimga dey”, “Ey Nasimi” muxammaslari va boshqa g‘azallari shunday sherlardandir. Zavqiyning “obid mingboshi haqida hajv” (1906), “Shoh inoyat qo‘rboshi”(1908) kabi satiralari, “Kajdor maraz ey zamona” (1905), “Kam suxanlik” (1912-1913), “Qahatlik”(1916), “ajab emas”(1916) kabi siyosiy lirikalarida avvalgilariga qaraganda ozodlik kelajakka umid bilan qarash g‘oyalari kuchlidir.¹

Aynan shu davrda yashab ijod qilgan adabiyotni rivojlanishida katta hissa qo‘shgan demokrat shoira Anbar otindir. Uning ijodini o‘rganadigan bo‘lsak shoiraning g‘azallarida asosan mahallaning mushtipar, kambag‘al ayollarining ayanchli taqdiri orzu-umidlari, baxtsiz sevgilari kuylanar edi. Shoiraning ijtimoiy siyosiy mazmundagi “Qoralar falsafasi” nomli risolasida ham mazkur davrda ayollarga nisbatan olib borilgan jabr zulmi va ularni to‘rt devor ichkarisida kechirayotgan qayg‘u g‘amga to‘la hayotini qoralaydi.

Shoiraning lirik qahramoni sog‘lom, zakovatli otashin qalb egasi zamondan zulm ko‘rgan tahqirlangan, ammo mag‘rur o‘zbek ayolidir Bu o‘zbek ayolining ilm-ma‘rifat olish u yoqda tursin, yoruq dunyoni ko‘rishga ham haqqi yo‘q edi. Bu ayollar taqdiridan

¹ Razzoqov. H. Zavqiy hayoti va ijodi. T. 1955-yil



ta'sirlangan shoira o'zbek ayolini g'aflat uyqusidan uyg'onishga o'z haq-huquqi uchun kurashga da'vat qiladi. Asar oddiy qog'oziga yozilgan, avtograf hajmi, 43 bet 1966-yil sheriya muxlisi G'ofur hasanov (vositasida) Leninoboddan shoira yana bir kichik bir sheriya to'plamchasi topilgan bo'lib, sherlar "xurufi xijo" uslubida yozilgan, ya'ni har bir arab alifbosidagi harfga bir sher bag'ishlangan. Anbar otinning o'zi uni "Yakka baytlar deb ataydi"²

XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi, o'zbek romanchiligining asoschisi 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi Abdulla Qodiriydir. Uning ilk ijod namunalari hisoblangan "To'y", "Ahvolimiz", "Millatimga", "Fikr aylagil" sherlari, "Baxtsiz kuyov" drammasi, "Juvonboz" hikoyasi kabi asarlari millatparvarlik ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan bo'lib jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgan. Adibning yana bir bebaho ijod namunasi bo'lgan "Jinlar bazmi" hikoyasidir. Bu kitobda ikki hikoya "Jinlar bazmi" va "Uloqda" kiritilgan bo'lib ularda xalqimizning milliy urf odatlari, sehirli hodisalar haqida tasovvurlar mahorat bilan tasvirlangan. Mazkur kitob adib tug'ilgan kunining 110-yiliga bag'ishlab chop etilgan. Adib tomonidan bu hikoya 1915-yilda yozilgan va unga ortiqcha o'zgarishlar kiritilmagani aytib o'tilgan³.

O'zbek demokratik adabiyoti asoschilaridan biri bo'lgan Muqimiy ijodiga to'xtaladigan bo'lsak U yashab ijod etgan davr adabiy hayoti murakkab edi. Bunday muhit Muqimiy ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. O'zbek adabiyotida demokratik yo'nalishning vujudga kelishi va shakllanishi, Muqimiy nomi bilan bog'liq. U boshliq Furqat, Zavqiy, Avaz, Komil kabi ilg'or fikrli shoirlar o'z adab tarixida yangi sahifa ochdilar. Muqimiy lirikasi chuqur optimism bilan sug'orilgan, hayotiylik ushbu lirikaning asosiy va yetakchi xususiyatlaridan. Muqimiy real muhabbatni insanni kuylagan. U lirik shoir. Muhabbat mavzusi uning lirikasida asosiy o'rin tutadi. "Oshiq bo'libman", "Ayrilmasun", "O'zim har joydaman", "Aqlu xush uchdi boshimdan..." kabi sherlari bunga misol.

Muqimiy hajv yo'nalishida ham ijod qilgan bo'lib uning hajviyoti satira va yumorga bo'linadi. Satiralar chor amaldorlari, ayrim mahalliy boylarning, kirdikorlari ochib tashlangan. "Tanobchilar", "To'y", "Moskovchi boy tarifida", "Hajvi Viktor boy", "Voqeai Viktori" kabilar shular jumlasidandir. Uning "Saylov", "Dar mazammati zamona" va boshqalarda o'lkaga kirib kelayotgan kapitalistik va g'ayri axloqiy munosabatlar hamda ularning oqibatlarini ko'rsatilgan. Muqimiy turli shahar va qishloqlarga qilgan sayohatlari taassurotlari asosida 4 qismli "Sayohatnoma" asarini yozdi. Asar yengil o'ynoqi vaznda yozilgan, 4 misrali bandlardan tashkil topgan. Unda xalq turmushining og'irligi, qishloqlarning vayronaligi realistik tasvirlangan⁴.

Muqimiy ijodini o'rganish, asarlarini to'plash va nashr ettirish U hayot davridayoq boshlangan. Dastlab Ostroumov "Devoni Muqimiy" to'plamini (1907) nashr qilgan, so'ng 1910-1912-yillarda "Devoni Muqimiy maa hajviyot" nomi bilan asarlar to'plami bosilgan. Keyingi davrlarda G'ofur G'ulom, Oybek, X. Zarifov, H. Yoqubov, H. Razzoqov,

² Anbar Otin. "Qoralar falsafasi"

³ Abdulla Qodiriy. "Jinlar Bazmi"

⁴ Muqimiy. "Ikki tomlikasalar to'plami" II tom. T. 1980-yil 18,19,20 betlar



G'.Karimov, A.Xayitmetov va boshqalar Muqimiy ijodini tadqiq etganlar. Sherlaridan namunalar chet tillariga tarjima qilgan. Farg'ona viloyatidagi shaharcha, Toshkent ko'chalaridan biri, O'zbek davlat musiqali drama teatri Muqimiy nomi bilan ataladi. Shoir haqida Sobir Abdulla "Mavlono Muqimiy" romani va "Muqimiy dramasi yaratgan. Muqimiyning aksaryat g'azallari ashulaga aylangan. Muqimiy bilan birga Furqat ijodiga ham to'xtalishimiz mumkin chunki bu ikki buyuk shaxs bir davrda yashab ijod qilgan.

O'z xalqining atoqli farzandi olovliqalb shoir va mutafakkir Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat undan bizgacha yetib kelgan ko'plab asarlarda el dardi, mehnatkash aholi hayoti ona yurt sog'inchini tasvirlab yozadi. Bugungi kunga qadar Furqatning 1959-yilda nashr etilgan ikki tomlik "Tanlangan asarlar"ning birinchi tomida chop etilgan tojik tilidagi birgina g'azali kutubxonlarga ma'lum edi. Bu g'azal yetti baytdan iborat Ushbu asarda Furqatning "Adashganman" radifli g'azali hamda "Ayrilib qoldim" kabi radifli g'azallari mavjud bo'lib, "Adashganman" gazalida g'ariblik, musofirlik to'g'risida so'z boradi⁵

Furqatning yoshlik yillari Qo'qonda Said Muhammad Xudoyorxon hukmronligi davrida o'tdi. Qo'qonxonligining oxirgi yillarida bo'lib o'tgan toj-taxt uchun kurash ikkinchi tomondan rus bosqinchilarini yurtga hukmronlik qilish yo'lida amalga oshirgan ishlari va shunga o'xshash tartibsizliklarni o'z ko'zi bilan ko'rgan hamda xalq dardini his etgan edi. Shu boisdan Furqat o'z xotirasida o'rnashib qolganbu iztrobli voqealarni qayta-qayta mushohada etgan, shu munosabat bilan qo'lga qalam olgan, bu xususida yaratigan o'z asarlarinigina emas, balki hamkasb shoir do'stlari tomonidan bitilgan asarlarni ham o'quvchilarga yetkazish yo'llarini izlab topgan. Dastlab U Qo'qonlik shoir do'sti Mulla Sodiq Kotibning "o'ldi" radifli yuz misradan iborat muxammasini, sal keyinroq "Muxammas Muhammad Xudoyorxon tilidan" sarlovhali salmoqli muxammasini "Turkiston viloyatining gazet"i muharriri N.Osturomov hamda shu gazeta hodimi, taniqli o'zbek ma'rifatparvari Sattorxon Abdug'offorov yordamida ruscha so'zma-so'z tarjimasi kirish so' va izohlari bilan "Rossiya arxeologiya jamiyati sharqshunoslik bo'limi "Axborot" ida poytaxt Peterburgda chop ettirishga muvaffaq bo'lgan edi. Keyinchalik 1903-yilda 9-iyunda "Turkiston viloyatining gazet"ida "Qasida" sarlovhasi ostida nashr etilgan yerik asarning katta bir qismi Qo'qon xonligini so'ngida ro'y bergan fojealar tasviriga bag'ishlangan. XIX asrning ikkinchi yarmidagi o'zbek nasrining eng yaxshi namunalaridan biri bo'lmish "Sarguzashtnoma" esa mustaqil qo'qon xonligining rus mustamlakasiga aylanishiga olib kelgan o'sha dahshatli voqealar keng tasvirlangan.

Yuqoridagi asarlardan tashqari Furqat Qo'qonxonligining eng oxirgi hafta va oylari tasviriga bag'ishlangan maxsus kitob ham yozgan. Lekin bu asar tadqiqotchilar qo'lga tushmaganligi sababli undagi voqealar va shaxslar haqida ham, asarning nasr yoki nazmda bitilganligi haqida ham hech qanday ma'lumotlar topilmagan.

Zokirjon Furqat turli janrlarda sherlar yozishi, badiiy ijodda yuksak pog'onalarga ko'tarilishi bilan barobarida ijtimoiy hayotda ham katta ahamiyatga ega ega bo'lgan ishlarni amalga oshirdi. U iqtisodiy masalalarda ham fikr yuritib qalam tebratgan. Ayniqsa shoir arxeologik qazilmalar, topilmalar haqida bir necha maqolalar yozib o'zining tarixdan

⁵ Aziz Qayum "furqat ijodiyoti" O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti 1990. 7-bet.



ham chuqur bilimga ega ekanini namoyish etdi. Shoir 1891-yilda Toshkent Samarqand shahriga borganida u yerda yashovchi, arxeologiya qazilmalari va topilmalar bilan qiziquvchi, bilimdon Mirzo Buxoriy uyida bo'lib uning tarixiy obidalar topilmalarni yig'ib ularni ko'z qorachig'iday saqlab yurganligini maroq bilan tasvirlaydi⁶.

Xullas o'zbek adabiyoti o'zining ana shunday o'lmas tarixiga ega bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan aksincha yoshlarni bilim olishida, izlanishlarida muhim manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. O'zbek adabiyotini jahon yuzini ko'rishida hizmat qilgan adiblarimiz hamisha o'zbek xalqi uchun barhayotdir. Shu sababdan ham O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 18-aprelda "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida Adiblar xiyoboni barpo etish to'g'risida"gi qarori imzolandi. Mazkur qaror ijrosi doirasida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

FAYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Razzoqov. H. Zavqiy hayoti va ijodi. T. 1955-yil
2. Anbar Otin. "Qoralar falsafasi"
3. Abdulla Qodiriy. "Jinlar Bazmi"
4. Muqimiy. "ikki tomlik asarlar to'plami" II tom. T. 1980-yil 18,19,20 betlar
5. Aziz Qayum "Furqat ijodiyoti" O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti 1990. 7-bet.
6. Sharif Yusupov. "Xudoyorxon va Furqat" T. 1995. 4-bet.

⁶ Sharif Yusupov. "Xudoyorxon va Furqat" T. 1995. 4-bet.